

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga **3388,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **53,5** ming kishiga yoki **1,6 %** ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1453,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,9 %**), qishloq aholisi soni **1935,6** ming kishini (**57,1 %**) tashkil etdi.

E'tibor bering:  
2021- yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **53,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **72,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- 11,3 ming ta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **18,8 ming ta nikoh va 2,0 ming ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Qashqadaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

Tug'ilganlar  
**72,0**  
ming bola

Tabiiy o'sish  
**60,7**  
ming kishi

Vafot etganlar  
**11,3**  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
**53,5**  
ming kishi

Ko'chib kelganlar  
**9,2**  
ming kishi

Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
**-7,2**  
ming kishi

Ko'chib ketganlar  
**16,4**  
ming kishi

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (1- oktabr holatiga, ming kishi)

	2020- yil	2021- yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish yoki kamayish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3317,8</b>	<b>3388,9</b>	<b>102,1</b>
Qarshi sh.	277,3	282,5	101,9
Shahrisabz sh.	140,1	142,2	101,5
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	206,5	211,0	102,2
Dehqonobod	149,0	152,3	102,2
Qamashi	273,5	279,0	102,0
Qarshi	251,1	257,4	102,5
Koson	288,9	295,7	102,4
Kitob	265,2	269,8	101,7
Mirishkor	120,9	123,4	102,1
Muborak	87,8	89,7	102,2
Nishon	154,6	158,3	102,4
Kasbi	198,7	202,9	102,1
Chiroqchi	416,7	428,8	102,9
Shahrisabz	222,7	226,3	101,6
Yakkabog'	264,8	269,6	101,8


Hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1-oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida **428,8** ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi **12,6 %**) va Koson tumanida **295,7** ming kishini (**8,7 %**), Qarshi shahrida **282,5** ming kishini (**8,3 %**), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida **89,7** ming kishini (**2,6 %**) va Mirishkor tumanida **123,4** ming kishini (**3,6 %**) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida **2,9 %** ni, Qarshi tumanida **2,5 %** ni, Nishon va Koson tumanlarida **2,4 %** ni, va aksincha eng kam o'sish sur'ati Shahrisabz shahrida **1,5 %** ni, Shahrisabz tumanida **1,6 %** ni, Kitob tumanida **1,7 %** ni va Yakkabog' tumanida **1,8 %** ni tashkil etdi.


## Demografik holat



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2021- yil 1- oktabr holatiga, % da)





**Doimiy aholi sonining hududlar kesimida  
jinslar bo'yicha taqsimlanishi**


	Jami	Erkaklar	Ayollar
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3388,9</b>	<b>1715,2</b>	<b>1673,7</b>
Qarshi sh.	<b>282,5</b>	<b>141,3</b>	<b>141,2</b>
Shahrisabz sh.	<b>142,2</b>	<b>72,2</b>	<b>70,0</b>
tumanlar:			
G'uzor	<b>211,0</b>	<b>107,1</b>	<b>103,9</b>
Dehqonobod	<b>152,3</b>	<b>77,1</b>	<b>75,2</b>
Qamashi	<b>279,0</b>	<b>141,6</b>	<b>137,4</b>
Qarshi	<b>257,4</b>	<b>127,9</b>	<b>129,5</b>
Koson	<b>295,7</b>	<b>150,0</b>	<b>145,7</b>
Kitob	<b>269,8</b>	<b>137,2</b>	<b>132,6</b>
Mirishkor	<b>123,4</b>	<b>63,0</b>	<b>60,4</b>
Muborak	<b>89,7</b>	<b>45,3</b>	<b>44,4</b>
Nishon	<b>158,3</b>	<b>79,2</b>	<b>79,1</b>
Kasbi	<b>202,9</b>	<b>103,5</b>	<b>99,4</b>
Chiroqchi	<b>428,8</b>	<b>218,2</b>	<b>210,6</b>
Shahrisabz	<b>226,3</b>	<b>115,1</b>	<b>111,2</b>
Yakkabog'	<b>269,6</b>	<b>136,5</b>	<b>133,1</b>



**Tug'ilish.** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **72,0** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **28,6** promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **2,1** promillega (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida **26,5** promille) ko'paygan.

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Shahrisabz shahrida (**21,1** promilledan **25,2** promillega), Qarshi shahrida (**21,4** promilledan **27,1** promillega), Koson tumanida (**26,6** promilledan **30,2** promillega), Chiroqchi tumanida (**31,8** promilledan **35,6** promillega) o'sish va Yakkabog' (**27,6** promilledan **27,5** promillega), Shahrisabz tumanlarida (**23,7** promilledan **23,3** promillega) kamayish kuzatildi.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-sentabr)



O'g'il bolalar: **37,4** ming nafar      Qiz bolalar: **34,6** ming nafar

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni birlik,  
o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-sentabr)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>65506</b>	<b>72021</b>	<b>109,9</b>
Qarshi sh.	4425	5689	128,6
Shahrisabz sh.	2210	2668	120,7
tumanlar:			
G'uzor	4362	4582	105,0
Dehqonobod	3084	3610	117,1
Qamashi	5843	6250	107,0
Qarshi	4659	4925	105,7
Koson	5707	6612	115,9
Kitob	4972	5141	103,4
Mirishkor	2338	2501	107,0
Muborak	1717	1832	106,7
Nishon	3083	3447	111,8
Kasbi	3867	4030	104,2
Chiroqchi	9844	11291	114,7
Shahrisabz	3947	3926	99,5
Yakkabog'	5448	5517	101,3




## Vafot etganlar

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 11,3 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi.

### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha

yanvar – sentabr



2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 550 ta 1 yoshgacha go‘daklar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 tirik tug‘ilganga go‘daklar o‘lim koeffitsiyenti 7,9 promilleni tashkil etdi.

### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha 1 yoshgacha vafot etganlar




**Nikoh.** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan **18,8** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti **7,5** promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Dehqonobod tumanida (**130,4** %), Nishon tumanida (**130,3** %), Qarshi shahrida (**126,3** %), Yakkabog' tumanida (**115,4** %) eng yuqori kamayish Kitob tumanida (**73,3** %) va Shahrisabz shahrida (**77,2** %) ga to'g'ri kelmoqda.


**Nikohdan ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan **2,0** mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ra vishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Yakkabog' (**244,7** %), Nishon (**196,4** %), Qarshi (**190,8** %), Mirishkor (**182,1** %), Shahrisabz (**178,0** %), Chiroqchi (**168,2** %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-sentabr )



**Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti  
(2021-yil yanvar-sentabr)**



**Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-sentabr)**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>19395</b>	<b>18842</b>	<b>97,1</b>	<b>1338</b>	<b>2044</b>	<b>152,8</b>
Qarshi sh.	1409	1780	126,3	217	266	122,6
Shahrisabz sh.	882	681	77,2	96	139	144,8
tumanlar:						
G'uzor	1424	1262	88,6	71	111	156,3
Dehqonobod	754	983	130,4	51	62	121,6
Qamashi	1686	1355	80,4	80	116	145,0
Qarshi	1715	1541	89,9	98	187	190,8
Koson	1973	1638	83,0	102	139	136,3
Kitob	1654	1213	73,3	147	192	130,6
Mirishkor	698	676	96,8	28	51	182,1
Muborak	588	557	94,7	46	42	91,3
Nishon	795	1036	130,3	55	108	196,4
Kasbi	1248	1139	91,3	64	81	126,6
Chiroqchi	2268	2481	109,4	107	180	168,2
Shahrisabz	1018	1019	100,1	91	162	178,0
Yakkabog'	1283	1481	115,4	85	208	244,7



shutterstock.com - 194608520

**Migratsiya.** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **9,2** ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa **16,4** ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus **7,2** ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus **17,4** ming kishi bo'lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yakkabog' tumanida (minus **1,2** ming kishi), Chiroqchi tumanida (minus **1,0** ming kishi), Kitob tumanida (minus **1,0** ming kishi), Qamashi tumanida (minus **0,9** ming kishi) qayd etildi.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi yanvar-sentabr)

	2020- yil	2021- yil
<b>Ko'chib kelganlar</b>	6,7	9,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	24,1	16,4
<b>Migratsiya saldosi</b>	-17,4	-7,2





**Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni  
va migratsiya saldosи, kishi (yanvar-sentabr)**

	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosи	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Qashqadaryo viloyati:</b>	<b>6715</b>	<b>9151</b>	<b>24067</b>	<b>16360</b>	<b>-17352</b>	<b>-7209</b>
Qarshi sh.	1467	2208	2409	2563	-942	-355
Shahrisabz sh.	224	601	1024	1048	-800	-447
tumanlar:						
G'uzor	204	312	789	713	-585	-401
Dehqonobod	142	7	677	665	-535	-658
Qamashi	256	332	2502	1237	-2246	-905
Qarshi	1277	1848	1160	992	117	856
Koson	343	370	755	938	-412	-568
Kitob	366	346	3228	1345	-2862	-999
Mirishkor	181	189	365	384	-184	-195
Muborak	170	312	355	404	-185	-92
Nishon	583	735	969	933	-386	-198
Kasbi	250	301	592	660	-342	-359
Chiroqchi	173	446	2548	1436	-2375	-990
Shahrisabz	590	733	3246	1437	-2656	-704
Yakkabog'	489	411	3448	1605	-2959	-1194



## Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (yanvar-sentabr)



Viloyat statistika boshqarmasi Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
(75) 220-04-10 (75) 221-15-84